



STUDY OF SCHOOL AND FAMILY COOPERATION IN EDUCATING STUDENTS WITH SPECIAL NEEDS

L. Sh. Nurmukhamedova

*Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Tashkent, Uzbekistan*

M. F. Jalilova

*Doctoral student
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: School, family, neighborhood, education, student.

Received: 06.12.22

Accepted: 08.12.22

Published: 10.12.22

Abstract: As part of the approved set of measures to further strengthen the "family-neighborhood-educational institution" cooperation, certain activities are being carried out to increase the responsibility of parents in the upbringing and education of children, and to ensure the attendance of students. In particular, during the past period of this year alone, more than 25,000 events were held to study the quality of education in educational institutions, and 21,000 events were held to involve students in the learning process. the fact that more than 30,000 educational activities were conducted with the children's parents is also a proof of the above opinion.

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINI O'RGANISH

L. Sh. Nurmuhamedova

*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

M. F. Jalilova

*Doktorant
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Maktab, oila, mahalla, ta’lim, o‘quvchi.

Annotatsiya: “Oila-mahalla-Ta’lim muassasasi” hamkorligini yanada kuchaytirish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasi doirasida farzand tarbiyasida va Ta’lim olishida ota-onalarning mas‘uliyatini oshirish, o‘quvchilarning davomatini ta‘minlash borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, birgina joriy yilning o‘tgan davri mobaynida ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya sifatini o‘rganish maqsadida 25 mingdan ortiq, o‘quvchilarning dars jarayoniga jalb etilishi bo‘yicha 21 mingta tadbirlar o‘tkazilib, o‘qishga muntazam qatnamaydigan bolalarning ota-onalari bilan 30 mingdan ortiq tushuntirish ishlari olib borilgani ham yuqoridagi fikrning isbotidir.

ИССЛЕДОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ШКОЛЫ И СЕМЬИ В ОБУЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Л. Ш. Нурмухамедова

кандидат педагогических наук, доцент

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Ташкент, Узбекистан

М. Ф. Джалилова

докторант

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Школа, семья, соседство, образование, ученик.

Аннотация: В рамках утвержденного комплекса мер по дальнейшему укреплению сотрудничества «семья-соседство-образовательное учреждение» проводятся определенные мероприятия по повышению ответственности родителей в воспитании и обучении детей, обеспечению посещаемости обучающихся. В частности, только за прошедший период текущего года проведено более 25 000 мероприятий по изучению качества образования в общеобразовательных учреждениях, а также 21 000 мероприятий по вовлечению обучающихся в учебный процесс. проведенное с родителями детей, также является доказательством вышеизложенного мнения.

KIRISH

Farzandlarimizning hech kimdan kam bo‘lmay Ta’lim-tarbiya olishlari, o‘z bilim va iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Natijada bugungi yosh avlod o‘zining

intellektual va jismoniy salohiyatlarini ishga solgan holda nufuzli olimpiadalarda, musobaqa va tanlovlarda zafar qozonib, yuksak marralarni qo‘lga kiritmoqda. Davlatimiz siyosatida nafaqat meyorida rivojlanayotgan bolalar, balki rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarga ham e’tibor juda kuchli.

“Oila-mahalla-Ta’lim muassasasi” hamkorligini yanada kuchaytirish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasi doirasida farzand tarbiyasida va Ta’lim olishida ota-onalarning mas‘uliyatini oshirish, o‘quvchilarning davomatini ta‘minlash borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bиргина жорија ўйнинг о‘тган даври мобайнда Ta’lim muassasalarидаги Ta’lim-tarbiya sifatini o‘рганиш мақсадида 25 mingdan ortiq, o‘quvchilarning dars jarayонига jalb etilishi bo‘yicha 21 mingta tadbirlar o‘tkazilib, o‘qishga muntazam qatnamaydigan bolalarning ota-onalari bilan 30 mingdan ortiq tushuntirish ishlari olib borilgani ham yuqoridagi fikrning isbotidir.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun talablari asosida maktabgacha yoshdagи bolalarga Ta’lim —tarbiya berishning asosiy maqsadi - yosh avlodni milliy mafkurasi asosida so`lom har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va mакtab Ta’limiga tayyorlashdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun maktabgacha yoshdagи maktabgacha yoshdagи bolalar bilan xam turli ishlар amalga oshirilmoqda. Ularning bilish faoliyatидаги nuqsonлarini bartaraf etish ishlар korreksion ishlар tizimi asosida amalga oshirilishi lozimligi barcha maxsus adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilgan. Bu o‘rinda maktabgacha ma’lum muassasining rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani, xususan aqli zaif bolani tarbiyalashda uning oilasi bilan hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Defektolog rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani faqatgina maxsus muassasada tarbiyalashnigina amalga oshirmsandan, balki uning oilasi bilan ham ish olib borishi zarur. Defektolog bolaning oilasiga psixologik, bolani tarbiyalashning tashkil etish yo‘llari, usullarini ko‘satib borishi lozim. Aqli zaif bola bilan ishslashga jalb etilgan mutaxassis bolaga yaqindan yordam berish uchun uning oilaviy sharoiti xususiyatlarini tushunishi muhim.

So‘nggi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi masalalari respublikamiz va chet elda pedagogika, psixologiya va sotsialogiyaning dolzarb muammolariban biri safiga kirgan. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning tuzilishida bolaning o‘rni uning psixik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus muassasalar amaliyotida shunday yondoshish mavjudki, bunda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola tarbiyalayotgan oilaning muammosi bolaning o‘zidagi muammolar prizmasidan qaraladi. Ammo, keyingi paytlarda u yoki bu nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi muammosigina emas, balki ular tarbiyalanayotgan oilalar muammolariga ham e’tibor qaratilmoqda. Maxsus Ta’lim muassasalari pedagoglari ko‘pincha ota-onalarga farzandlarining psixik va jismoniy rivojlanishi xususiyatlari hamda oila sharoitida korreksion ish yuzasidan ba’zi bir tavsiyalar berish yetarli deb hisoblaydilar. Ammo, bu tavsiyalar va tushuntirishlar yetarlicha

bo‘lmaydi, chunki ular rivojlanishida muammolari bo‘lgan farzandga ega ota-onalarning turli yo‘nalishdagi mutaxassislardan malakali yordamga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bundan tashqari, ko‘p ota-onalar bu tavsiyalarga rioya qilmaydilar. Buning sababi ota-onalar shaxsidagi o‘ziga xos o‘zgarishlar bo‘lib, bu o‘zgarishlar ularga rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan bog‘liq vaziyatni to‘g‘ri baholash, bola va uni o‘qitayotgan pedagog bilan zarur bo‘lgan munosabatlarni o‘rnatishga imkon bermaydi. Kundalik hayotda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan ota-onalar juda ko‘p muammolarga duch keladilar. Bir tomondan ular o‘zlarining farzandlari tarbiyasi va Ta’limi bilan bog‘liq vositalarni tanlashda qiyalsalar, ikkinchi tomondan, oilada nuqsonli bola dunyoga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan chuqur psixologik muammolar yuzaga keladi.

Imkoniyati cheklangan o`quvchilar oilasining alohida muammolari Bogdanova T.A., Shoumarov G‘.B., Dobrovolskaya, A.I., Zaxarova, I.Y. Levchenko, Mamaychuk I.I., Martinova V.L., Pyatakova G.V., Mastyukova YE.M., Mishina G.A., Raku

A.I., Semago M.M., Skvorsova I.A., Osipenko T.N., Spivakovskaya A.S., N.B. Shabalina, A.R. Sharipova, N.N. Shkolnikova, V.V., Yurtaykina boshqalar tadqiqotlarida yoritilgan.

Bizning respublikamizda Nurmuxamedova L.SH. —Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari mavzusida tadqiqot ishini olib borgan bo‘lib, uning tadqiqoti ota-onsa va nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik holatlarini o‘rganish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Imkoniyati cheklangan bola, agarda u maxsus Ta’lim muassasasiga qatnayotgan bo‘lsa shaxsini rivojlanishi, ijtimoiy yetukligining muhim shartlaridan biri uning atrorfdidagi kattalarning: ota-onalar va o‘qituvchilarning hamkorlikdagi ishidir. Bu ishning samarali bo‘lishi va bolaning ijtimoiy rivojlanishiga to‘laqonli yordam berishi uchun nima qilish lozim, mifik va bolaning oilasini hamkorligini qanday tashkil etish kerak va bundan faqatgina pedagoglar emas, balki ko‘p jihatdan ota-onalarning qoniqishi – bu masalalar maxsus pedagogika, korreksion pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir.

Shu sababli oiladagi muammolarni bilishi va ota-onalarni aqli zaif bolani to‘g‘ri tarbiyalash tamoyillari va metodlariga o‘rgatish kerak. Bularni amalga oshirish uchun maktabgacha Ta’lim muassasasi doimo ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi zaruriyati kelib chiqadi. Ana shu hamkorlikning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uning tashkil etishning, olib borishning samarali usullarni, yo‘llarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunga bog‘liq ravishda tadqiqotimizning bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini —Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani tarbiyalashda oila va maktab hamkorligining shakl va metodlari deb belgiladik

O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarning majmuaviy abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi, ta’limiy va kasbiy reabilitatsiyasi tizimining samaradorligini oshirish, bu toifadagi bolalar bilan ishlovchi kadrlarni tayyorlash xamda malakasini oshirish, imkoniyati cheklangan bolalar uchun

muassasalar deinstitutionalizatsiyasi, shuningdek, ular bilan olib borilayotgan ishlar xolati bilan bog‘liq muammolarni xal qilish uchun tashkilotlarning o‘zaro xarakatini takomillashtirish, boshqa soha vakillari bilan o‘zaro xamkorlikda ishlash natijasida idora va xizmatlar faoliyatining uyg‘unlashuvi sezilarli tarzda yaxshilandi.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Sog‘lijni saqlash vazirligi bilan xamkorlikda O‘zbekistonning turli mintaqalarida –Toshkent shaxri va Toshkent viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona vodiysida uch yoshgacha bo‘lgan bolalarning salomatligi va rivojlanishida majmuaviy baxolash o‘tkazildi. Monitoring Butunjaxon sog‘lijni saqlash tashkilotining yangi standartlari asosida amalga oshirildi. Bu tadqiqotlarning xulosalari asosida aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, erta tashxis va barvaqt aralashuv muammolari xal etildi. Toshkent shaxridagi ikkita oilaviy poliklinikada “Barvaqt aralashuv xizmati” ish boshladi. “Barvaqt aralashuv xizmatini yaratish to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq alohida ixtiyojli bolalarga barvaqt majmuaviy korreksion psixologik yordamning uslubiy va tashkiliy asoslari ishlab chiqildi. Bola rivojlanishidagi buzilishlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni, zaruriyat bo‘lganida, bolalar nogironligi va rivojlanishdagi ikkilamchi buzilishlarni oldini olish uchun chuqr tibbiyy va psixologik-pedagogik tekshiruvga yo‘llashda yordamlashadi. Bola rivojlanishidagi kamchilik qancha erta aniqlansa, uni xal qilish shunchalik oson kechadi.

Internat turidagi bolalar “Muruvvat” uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik-pedagogik kuzatib borish yuzasidan ishlab chiqilgan va amalda qo‘llanilayotgan shakllari ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanishning yana bir namunasi xisoblanadi. Bu toifadagi bolalar uchun Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi xodimlari individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar, abilitatsiya va reabilitatsiya dasturlarini tuzdilar. Ular bolalarga jamiyatga to‘laqonli integratsiyalanish, inklyuziv ta’limga tayyorlanish imkonini beradi. Bu muassasaning xodimlari uchun ilmiy-uslubiy dasturlar bo‘yicha seminar va treninglar olib borilmoqda. Bolalar “Muruvvat” uylari tarbiyachilarini chuqr, og‘ir, o‘rtamiyona va yengil aqliy qoloqlikka ega bo‘lgan bolalar bilan korreksion –rivojlantiruvchi ish malakalariga o‘qitildi. Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi bilan o‘zaro samarali xarakat sharofati bilan bolalar muruvvat uylarining shtatlari qaytadan ko‘rib chiqildi. Agar avvalgi yillarda bitta tarbiyachiga 30 tadan ortiq bola to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, endilikda ular 5-6 nafargacha qisqartirildi. Bu esa murakkab ko‘p nuqsonli bolalarga boshqa bolalar bilan teng ravishda ta’lim olish va rivojlanish imkonini berdi.

Hozirgi kunga qadar Muruvvat uylariga rivojlanishida murakkab va ko‘p nuqsonli bolalar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tasarrufida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 23.08.2011 yildagi 240-sonli buyrug‘iga binoan qabul qilinadi. Muruvvat uylaridagi bolalar bilan ta’lim individual dastur asosida amalga oshirilar edi. Endilikda internat turidagi muassasalarda bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy-maishiy hamda kasbiy

tayyorgarlikni amalga oshiruvchi ishlar maxsus ishlab chiqilgan ta’lim-tarbiya jarayoni tizimi bo‘yicha olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat va axolini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra ushbu vazirlik tizimidagi bolalar Muruvvat uylarida 1307 ta 18 yoshgacha bo‘lgan bola mavjud.

RBIMM xodimlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida olingan ma’lumotlarga ko‘ra Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilarining taxminan 150 nafari mehnatning oddiy turlarini egallab, ta’lim jarayoniga jalb etilib, oila va jamiyatda mustaqil xayot kechirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash qurbiga ega, ularning reabilitatsion ichki imkoniyatlari mavjud. Shundan ko‘rinadiki, Respublikamizda bolalar “Muruvvat” uylarida yashovchilarni ham mehnatga jalb etib, davlat tomonidan ular uchun sarflanayotgan talaygina mablag‘larni tejash mumkin.

Buning uchun internat turidagi bolalar “Muruvvat” uylarida ta’lim-tarbiya jarayonini qayta ko‘rib chiqib, yangi tizim yaratish, nogiron bolalarni o‘z o‘ziga xizmat qilish, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, qo‘lidan keladigan, kasbiy mehnatga o‘rgatish, “Muruvvat” uyidan tashqaridagi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish muhim ahamiyatga ega.

Jahon defektologlari asarlarida internat turidagi muassasalarda olib boriladigan korreksion ishlarni amalga oshirish muammozi

Ijtimoiy moslashuv shaxsni turlicha ijtimoiy muxitning strukturaviy elementlariga faol kirishishiga imkon beruvchi, ya’ni jamoaning jamoatchilik xayoti va faoliyatida baxoli qudrat ishtirok etuvchi, jamiyatning ijtimoiy va madaniy xayotiga qatnashuvchi, yashab turgan joyining meyorlari va qoidalariga muvofiq o‘z xayotini qura oluvchi sotsializatsiyaning mexanizmlaridan birini o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiy moslashuv-bu shaxs va jamiyat o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi uzluksiz jarayon.

Me’yorda rivojlanayotgan bolalar katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan muloqot, ota-onalariga xo‘jalik bo‘yicha yordamlashish, ularni o‘rab turgan xayot va xodisalarga o‘xshatib qilingan turli o‘yinlarni o‘ynash, televidenie va radiodan axborot olish jarayonida ma’lumot va bilimga ega bo‘ladilar. To‘g‘ri tarbiya o‘rnatilgan oiladagi bolalar zimmasida uy-ro‘zg‘or xo‘jaligi va ularni o‘rab turgan hayot haqidagi tushunchalarini kengaytirishga yordam beruvchi ma’lum bir maishiy-xo‘jalik majburiyatlar bo‘ladi. Bundan tashqari, maktabda o‘qish o‘smirlarni zarur bo‘lgan ma’lumot, odat, malakalar zaxirasi bilan qurollantiradi.

Aloxida yordamga muxtoj bolalarda esa ushbu jarayon boshqacha kechadi. Ushbu toifadagi bolalar bilan ishlovchi xodimlar ta’lim va tarbiya shakllarining mohiyatini, maqsad va mazmunini, usul hamda vositalarini, tamoillarini yaxshi egallab, ularni amalda qo‘llay olishlari kerak. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarni o‘z kuchiga ishontirish, mashg‘ulotlarga havasini uyg‘ota bilish, material bayoni vaqtida ularning dikqatini to‘la jalb qila olish, materialni esda saqlab qolish yo‘llarini (mashq,

ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, mustaqil ish, suhbat, didaktik o‘yin kabi vositalarni) qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tug‘risidagi qonunning 23 moddasiga ko‘ra rivojlanishida jismoniy yoki psixik kamchiliklari bulgan aloxida yordamga muxtoj bolalar ta’lim olish xukukiga ega.

XULOSA

Bizning mamlakatimizda alohida yordamga muxtoj bolalarga yordamni tashkil etish - inson xakida g‘amxo‘rlik kursatilishi, ijtimoiy ximoya, mexr va muruvvatning yorin namunalaridan biridir. Xozirgi kunda aloxida yordamga muxtoj, imkoniyatlari cheklangan bolalarga yordam O‘zbekiston Respublikasida uch vazirlik qoshidagi muassasalarda amalga oshirilmokda: Mehnat va axolini ijtimoiy muxofaza kilish vazirligi, Sog‘likni saklash hamda Xalq ta’limi vazirliklari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi /O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: “O‘zbekiston” 1992
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”-2017.
4. Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon. Demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz." T: “O‘zbekiston”-2017
5. Amirsaidova Sh.M. Maxsus pedagogika fani rivojlanishida sharq mutafakkirlari g‘oyalarining o‘rnini va roli: - T., 2006
6. Nurmuxamedova L.Sh. Shark mutafakkirlarinipg oilada farzand tarbiyasiga oid karashlari.
7. Sheryazdanova X.T., Aralbaeva R.K. Sovremennoe sostoyanie semi i 8.prichini neblagopoluchiya.
9. Nazarova D. Maktabgacha yoshdagagi zaif epshtuvchi bolalar ga’lim-tarbiyasi tizimidagi xdmkorlik masalalari.
10. Nurkeldiena D.A., Arslanova M.M., Azimova N.M. Aloxiда yordamga muxtoj bolalar oilasidagi muammolar.
11. Nurmuxamedova L.Sh. Nogiron bolalar va ularning ota-onalari «rtasidagch uzaro munosabatlar
12. Axmedova Z.M. Rivojlanishda nuksoni bor bolalarni tarbiyalashda oilaning urni.
13. Xamidova M.P. Akli zaif ukuvchilarni oilada tarbiyalash asoslari
14. Muminova L.R. Oilada nogiron va yordamga muxtoj bolalar xakida. Oila kutubxonasi. T., 1999.